XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 25-iyul VI-69-60-11-154-K/24 Buvayda tumani

Buvayda tumanining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6- va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, Buvayda tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman Komissiyasining **2024-yil 10-iyundagi 41-**sonli bayonnomasi bilan Buvayda tumanining Oltiariq, Bag‘dod, Uchko‘prik va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosi bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Buvayda tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning **2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-son** xati bilan Kadastr agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogeodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining **2024-yil 10-iyundagi 96**-son xat bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman kengashining sessiyasida “Buvayda tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining **2024-yil 28-martdagi 03/08-2963-sonli xati;**
- Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining **2024-yil 10-iyundagi 96**-son xati;
- tuman ishchi komissiyasining **2024-yil 10-iyundagi 41-sonli bayonnomasi** inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Buvayda tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Buvayda tumanining Oltiariq, Bag‘dod, Uchko‘prik va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Komissiya bayoni bilan Buvayda tumanining Oltiariq, Bag‘dod, Uchko‘prik va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha 1-2-ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Buvayda tumanining Oltiariq, Bag‘dod, Uchko‘prik va Dang‘ara tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi  IBRAGIMOV BEXZOD ODILJONOVICH

Xalq deputatlari Buvayda tumani
Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-69-60-11-154-K/24 -son qaroriga
1-ilova

M A ‘ L U M O T

№	Tuman nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	**Buvayda tumani**	**101768,27**	**27912,96**

Xalq deputatlari Buvayda tumani
Kengashining
2024-yil 25-iyuldagi
VI-69-60-11-154-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Farg'ona viloyati Buvayda tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining

SXEMASI

